



MADANIY MEROS OBYEKTINI SAQLASHDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Aytmuratova Aynur Polatbaevna
(Tuproq-qal'a obyektida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tuproqqal'a yodgorligida tadqiqot olib borilgan davr, yodgorlikning madaniy meros obyektida muhofazaga olingan davr va umuman Qoraqalpog'iston hududida madaniy meros obyektida muhofazaga olingan yodgorliklar ro'yhati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Tuproqqal'a yodgorligining davlat kadastr hujjati va obyektida amalga oshirilgan restavratsiya va konservatsiya ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar; Arxeologiya, Tuproqqal'a, restavratsiya, konservatsiya, obyekt kadastr.

XX asr tadqiqotlarining ichida eng katta ilmiy ish bu albatta Tuproq-qal'ada olib borilgan tadqiqotlar edi. 1939-yilda boshlangan arxeologik tadqiqotlar ishlari 1941-yil Ikkinchi jahon urushi tufayli to'xtatiladi, 1945-yildan yana qazish ishlari boshlanib, 1950-yillariga qadar davom etadi. Ushbu ob'ektni davlat muxofazasiga olish ishlari mustaqillik yillarida amalga oshirilgan vazifalar hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston hududida joylashgan madaniy meros ob'ektlari yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan vazifalar ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2018 yil 16 yanvardagi F-5181 sonli farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019 yil 21 maydagi 01-12-02-2389-sonli xati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4038-son qarori ijrosi bo'yicha, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi 846-sonli qarorida belgilangan vazifalar bo'yicha bir qator ishlar olib borildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 2019 yil hisobotiga ko'ra

№	Xatlovdan o'tkazilgan madaniy meros ob'ektlari	Ro'yxatdan chiqarilgan madaniy meros ob'ektlari	Qayta o'rganilgan madaniy meros ob'ektlari	Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatida tasdiqlangan ob'ektlar.
1	291	3	288	288

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi moddiy madaniy meros ob'ektlarida 2016-2024 yillarda amalga oshirilgan konservatsiya va restavratsiya ishlari to'g'risida ma'lumotiga ko'ra

№	QR madaniy meros ob'ektlari	Arxeologik yodgorliklar	Arxitektura yodgorliklari	Monumental san'at yodgorliklari	Diqqatga sazovor joylar
1	288	131	24	88	45

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori ijrosini ta'minlash masalalari to'g'risida"gi 01-07/11-14-son bayoni ijrosini ta'minlash yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2018 yil 29 dekabrda 06-09/10-12/172 sonli chora-tadbirlar rejasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2019 yil 4 yanvarda 7-03/2 sonli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'hna va boy madaniy merosni xalqaro miqiyosda e'tirof etilishiga erishish maqsadida "Sahrodagi qasrlar" ob'ektlarini YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish choralari to'g'risida "Sahrodagi qasrlar" ob'ektlarining ro'yxatini tuzish va ularni aniqlash, o'rganib chiqish bo'yicha Madaniy meros



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish mintaqaviy davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, tuman hokimliklari va tegishli idoralar bilan birgalikda ma'lumotlar to'planishi vazifa qilib belgilangan. Ushbu ob'ektlar;

- Xo'jayli tumanidagi "Mizdaxkan" kompleksi.
- Amudaryo tumanidagi "Chilpiq" arxeologik ob'ekti.
- Ellikqal'a tumani "Ayoq qal'a", "Guldursin qal'a", "To'proqqal'a", "Qirqqiz qal'a" arxeologik ob'ektlari.
- To'rtkul tumani "Jambas qal'a" arxeologik ob'ekti
- Qorao'zak tumani "Jampiq qal'a" arxeologik ob'ektlarini YuNESKOning Umumjaxon merosi ro'yxatiga kiritish taklifi ko'zda tutilmoqdaligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Moddiy madaniy ko'chmas mulk ob'ektlarining davlat kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun mahalliy byudjetdan zarur bo'lgan mablag' ajratish uchun, Qoraqalpog'iston Respublikasi Er tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi tomonidan 179-ta moddiy madaniy meros ob'ektlarining 493 mln so'mga smeta hujjatlari tayyorlandi va ushbu smeta hujjatlari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2019 yil 15 maydagi 7-02/994 sonli xati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga kiritilgan.

Undan oldin 2009 yilda Tuproq-qal'a kadastr hujjati ishlab tasdiqlangan.

Hujjatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining 2008 yil 27 noyabr kungi 1231-sonli topshirig'ini bajarilishini ta'minlash maqsadida, tuman er ajratish doimiy komissiyasining xulosasini kurib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29-iyul kungi 269-sonli "Madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, shu xususda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2006 yil 13-oktyabr kungi 166/10-sonli qarorlariga, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarni muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga hamda "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani xokimining 2009 yil 22-fevraldagi 46/02-sonli

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi madaniy meros ob’ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat Inspeksiyasi xisobidagi quyidagi tarixiy madaniy meros ob’ektlariga va muxofaza zonasiga tegishli er maydonlarini bekitib berish to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan bir qator yodgorliklar kadastrini ishlab chiqildi. Shular qatorida “Sharq Yulduzi” OFY hududidagi “Tuproq-qal’a” arxeologik yodgorligi kirgizilgan. (1,2,3,4,5-rasmlar).

9.Ситуационный план памятника археологии Элликалинский район.



1-rasm


Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

10.Кадастровый план памятника археологии



2-rasm

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey


Website: econfseries.com

11th August, 2025

11. Фотографии

12. Чертежи

См. приложение



3-rasm


Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

13. Утвержденные охранные зоны См. лист Решение хокима Эликкалинского района
Республики Каракалтакстан №46/02 от 22.02.2009г.
кем. когда утверждены



4-rasm


Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Элликкальа тумани Тупраккальа МФЙ хуудуга жойлашган
Тупраккальа ТОПОГРАФИК ХАРИТАСИ



5-rasm



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli farmoni, 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-sonli qarori, shuningdek 2019 yil 22 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Q-4329-sonli qaroridagi bandlarda davlatimiz xududlaridagi jamoat va turistik joylarda Wi-Fi tarmoqlariga kira olishni tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shu munosabat bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xududida joylashgan va bugungi kunda sayyohlarning gavjum bo‘lib boradigan va qo‘layliklarni inobatga olib quyidagi madaniy meros ob‘ektlarida **Wi-Fi zonalarini tashkil etish taklifi kiritilgan**. Ushbu taklifning arxeologik ob‘ektlar ro‘yxatida Ellikqal’a tumanida joylashgan Tuproq-qal’a yodgorligi ham kiritilgan. [13].

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi moddiy madaniy meros ob‘ektlarida 2016-2024 yillarda amalga oshirilgan konservatsiya-restavratsiya ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotiga ko‘ra, ushbu yillar davomida qonun-qarorlar asosida 287 ta moddiy madaniy meros ob‘ektlarining kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi va davlat kadastlari yagona tizimiga (DKYAT) tegishli axborotlar joylashtirildi.

2016-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti hisobidan konservatsiya-restavratsiya ishlari amalga oshirilgan moddiy madaniy meros ob‘ektlari ro‘yxatida Tuproq-qal’a yodgorligida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 15-16 dekabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonining 71-bandida “2018 yilda Ellikqal’a tumanidagi “Tuproq-qal’a” arxeologiya-madaniy meros ob‘ektini konservatsiyalash hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda qal’a atrofida drenaj tizimlarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi vazifalarga asosan 2018 yil Ellikqal’a tumanidagi “Tuproq-qal’a” arxeologiya ob‘ektida 147,0 mln sum mablag‘ ajratilib “El-ta’mirlash” MCHJ tomonidan konservatsiya ishlari olib borilgan, 2019 yil davomida davlat byudjeti

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

hisobidan jami 171,0 mln sum mablag‘ ajratilib, konservatsiya ishlari amalga oshirilib tugatilgan. [1,11,12.]



Tuproq-qal’a yodgorligida amalga oshirilgan konservatsiya jarayoni 2018-yil.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-16 dekabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayoni. 2017 yil 21-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2018 yil 16 yanvardagi F-5181 sonli farmoyishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4038-son qarori.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

4. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi 846-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29-iyul kungi 269-sonli "Madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2006 yil 13-oktyabr kungi 166/10-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-sonli farmoni,
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509-sonli qarori,
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Q-4329-sonli qarori.
10. С.П. Толстов
"ПО СЛЕДАМ ДРЕВНЕХОРЕЗМИЙСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ",
ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК СССР МОСКВА-ЛЕНИНГРАД.:
1948г.
11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish mintaqaviy davlat inspeksiyasining 2018 yil hisoboti.
12. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi moddiy madaniy meros obyektlarida 2016-2024 yillarda amalga oshirilgan konservatsiya-restavratsiya ishlari to'g'risidagi hisoboti.
13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 2019 yil hisoboti.